

Geoinnovatsiya markazi bilan ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bo'yicha hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori o'rinbosari, "Geoinnovatsiya markazi" direktori Abdullaev Abdishukur Hamidovich ishtirokida Yer resurslarini boshqarish fakulteti talabalari bilan davra suhbatini o'tkazildi. Tadbirda markaz direktori A.Abdullaev "Geodeziya va geoinformatika", "Yer kadastr va yerdan foydalanish", "Yerni masofaviy zondlashda innovatsion texnologiyalar" ta'lim yo'nalishlari talabalari bilan uchrashdi hamda sohada raqabatbardosh, bilimli kadrlarni tayyorlash, talabalarning kelajakdagi ish faoliyati bilan bog'liq masalalarda suhbat o'tkazdi.



Shuningdek, talabalarni qiziqtirgan savollar: Kadastr agentligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda, jumladan, Geoinnovatsiya markazining ish faoliyati; uchuvchisiz uchish qurilmalari "dron"larning geodeziya, geoinformatika, kadastr va boshqa sohalarida qo'llanilishi; Geoinnovatsiya markazida o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish, o'qish davrida markaz ish jarayoni bilan tanishib borish, tajriba o'rganish va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish; uchuvchisiz uchish qurilmalari "dron"larni uchirish bo'yicha maxsus kurslarda o'qitish va sertifikat berish tartibi; Kadastr agentligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda, jumladan, Geoinnovatsiya markazida kelajakda ishga joylashish bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarga qo'yilgan talablar haqida savollarga javob berildi. Davra suhbatini mazmunli, qiziqarli va savol-javoblarga boy tarzda o'tdi.

Yer resurslarini boshqarish fakulteti dekani Sh.Narbaev axboroti